“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan ayrim davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriy hujjatlarni sudgacha ko‘rib chiqishning yangi tartibi

Rafik Shakurov,
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
yuridik fanlar nomzodi, dotsent
e-mail: shakurov.rafik.67@mail.ru

Аннотация. Ushbu maqoladaO‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Toshkent shahar adliya boshqarmasi huzurida apellyatsiya kengashlarini tashkil etish yuzasidantegishlicha normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganib chiqilib, Adliya vazirligi tomonidan ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ayrim tashkiliy ishlar tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada Vaqtinchalik nizom asosida apellyatsiya kengashlarining maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish hamda apellyatsiya kengashlari tomonidan ma’muriy hujjatlarning qonunchilikka muvofiqligini sudgacha ko‘rib chiqish tartibi yoritilgan.

Калит сўзлар. adliya, apellyatsiya kengashi, Vaqtinchalik nizom, davlat xizmatlari, manfaatdor shaxs, ma’muriy hujjatlar, sud, huquqiy eksperiment, shikoyat

Аннотация. В данной статье рассмотренысоответствующие нормативно-правовые акты по организации апелляционных советов при Министерстве юстиции Республики Узбекистан и Ташкентском городском управлении юстиции, а также анализируются некоторые предварительные работы, проводимые Министерством юстиции в этом направлении. Также в статье раскрываются статус, основные задачи, права и обязанности апелляционных советов на основании Временного положения, а также организация их деятельности и порядок судебной проверки апелляционными советами законности административных документов.

Ключевые слова. административные акты, апелляционный совет, Временное положение, государственные услуги, жалоба, заинтересованное лицо, правовой эксперимент, суд, управление, юстиция

Annotation. In this article, the relevant regulatory legal acts related to the establishment of appellate councils under the Ministry of Justice of the

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Republic of Uzbekistan and the Tashkent City Department of Justice have been thoroughly studied, and certain organizational measures carried out by the Ministry of Justice in this direction have been analyzed. In addition, based on the Provisional Regulation, the article highlights the status of appellate councils, their main tasks, rights and obligations, as well as the organization of their activities and the procedure for the appellate councils to review the compliance of administrative documents with the legislation before the case is brought to court.

Keywords. justice, appellate council, Provisional Regulation, public services, interested person, administrative documents, court, legal experiment, complaint

So‘nggi yillarda respublikamizda nizolarni sudga qadar hal etishga qaratilgan muqobil huquq institutlari, xususan, mediatsiya instituti va hakamlik sudlari amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Biroq, jahon amaliyotini o‘rganish, sudni jalb qilmasdan davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriy hujjatlar yuzasidan nizolarni hal qilishda ham muqobil usullarining keng qo‘llanib kelayotganligi va mazkur usul har tomonlama samarali ekanligidan dalolat bermoqda. Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF–80-son Farmoni 15-bandiga asosan, 2024-yil 1-iyuldan 2026-yil 1-iyulga qadar huquqiy eksperiment tariqasida joriy etilgan Toshkent shahrida qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan ayrim davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriy hujjatlarni sudgacha ko‘rib chiqishning yangi tartibi ahamiyat kasb etadi[1].

Mazkur tartib an’anaviy sud jarayonlaridan farqli ravishda jismoniy va yuridik shaxslarning vaqt va mablag‘larini tejash, qog‘ozbozliklarning oldini olish, nizolarni maqbul va qisqa muddatda hal qilish orqali sudlarning ish hajmini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ma’lumki, davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq tartib-taomillar O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonuni [2] bilan tartibga solingan bo‘lib, ushbu xizmatlarning aksariyati Adliya vazirligi tizimida tashkil etilgan Davlat xizmatlari markazlari orqali ta’minlanmoqda.

Mazkur qonunning 82-moddasida agar ma’muriy organ o‘zi qabul qilgan ma’muriy hujjat bo‘yicha o‘z majburiyatlarini ma’muriy hujjatda belgilangan ijro muddati ichida yoki, agar bunday muddat belgilanmagan bo‘lsa, ma’muriy hujjat qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida tegishli tarzda bajarmasa, manfaatdor shaxs bunday bajarmaganlik ustidan ma’muriy hujjat ustidan shikoyat qilish uchun belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli ekanligi ta’kidlangan.

Qoidaga ko‘ra, bunday shikoyatlar O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risida”gi kodeksiga[3] muvofiq, ma’muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Bugungi kunda, ta’kidlangan farmon ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Toshkent shahar adliya boshqarmasi huzurida apellyatsiya kengashlari tashkil etildi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi PQ–188-son qarori[4] bilan kengashlarning namunaviy tarkibi va Davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriy hujjatlarning qonunchilikka muvofiqligini sudgacha ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom tasdiqlandi.

Apellyatsiya kengashlari o‘z faoliyatida milliy qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, ushbu Vaqtinchalik nizomga amal qiladi. Jumladan, apellyatsiya kengashlarining maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish hamda apellyatsiya kengashlari tomonidan ma’muriy hujjatlarning qonunchilikka muvofiqligini sudgacha ko‘rib chiqish tartibi Vaqtinchalik nizom bilan belgilanadi.

Xususan, apellyatsiya kengashlari yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan kollegial organlar bo‘lib, ularning ishchi organlari tegishlicha Adliya vazirligi va Toshkent shahar adliya boshqarmasi hisoblanadi. Apellyatsiya kengashlari tarkibini kengashning raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va a’zolari tashkil etadi.

Ta’kidlangan qaror ijrosini ta’minlash maqsadida, joriy yilning 30-iyul kuni Adliya vazirligi huzuridagi Apellyatsiya kengashining dastlabki majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlisda manfaatdor shaxslarning davlat xizmatlariga oid shikoyatlari ko‘rib chiqilib, natijasi yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi hamda davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi ma’muriy organlarga yagona va izchil huquqni qo‘llash amaliyotini shakllantirish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi[5].

Apellyatsiya kengashlarining asosiy vazifalari qatorida, Vaqtinchalik nizomda sanab o‘tilgan, quyidagi turdagi davlat xizmatlari bo‘yicha qabul qilingan ma’muriy hujjatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi ko‘rib chiqish belgilangan:

tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan (qayta davlat ro‘yxatidan) o‘tkazish;

tadbirkorlik subyektlari bo‘lmagan yuridik shaxslarni (davlat organlari va muassasalari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, yuridik shaxslar birlashmalari, advokatlik tuzilmalarini) davlat ro‘yxatidan (qayta davlat ro‘yxatidan) o‘tkazish;

tadbirkorlik sub’ektlarini ixtiyoriy tugatish; kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlarini o‘zgartirish, to‘ldirish;

tegishli hududdagi adliya organlari va muassasalaridan hamda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlaridan chiqadigan rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish;

jismoniy shaxslarni Professional mediatorlar reyestriga kiritish;

yuridik maslahatchilar tashkilotini Yuridik maslahat xizmatlarini ko‘rsatuvchi tijorat tashkilotlari reyestriga kiritish;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari sud ekspertlariga sud eksperti sifatida kasbiy layoqatni tasdiqlovchi sertifikat berish;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

davlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash;

yoshlarning xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarini qoplab berish;

“Bir million dasturchi” loyihasi doirasida o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlarga, shuningdek, IT-park rezidentining o‘quvchisi yoki bitiruvchisi bo‘lgan yoshlarga iste’mol krediti orqali kompyuter xarid qilish uchun kafillik berish hamda mazkur kreditlarning foiz to‘lovlarini kompensatsiya qilish;

xalqaro imtihon tizimlari bo‘yicha yuqori ball (daraja) olgan yoshlarga o‘qish va imtihon topshirish xarajatlarini to‘liq qoplab berish;

suv ta’minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olish;

issiqlik ta’minoti tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olish;

elektr energiyasini o‘lchash vositasi va tizimini plombalash hamda elektr ta’minoti shartnomasini tuzish;

elektr energiyasini hisobga olish uskunasini (hisoblagichni) qiyoslashdan o‘tkazish (yechish va ulash bilan birga);

ichimlik va issiq suvni hisobga olish uskunasini (hisoblagichni) qiyoslashdan o‘tkazish (yechish va ulash bilan birga);

elektr energiyasini hisobga olish uskunasini (hisoblagichni) yechish, o‘rnatish va tamg‘alash;

ichimlik suvini hisobga olish uskunasini (hisoblagichni) yechish, o‘rnatish va tamg‘alash;

ulanadigan quvvati 20 kVtdan yuqori bo‘lmagan elektr tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olish;

1,2 MPa bosimdan yuqori bo‘lmagan gaz tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olish.

Apellyatsiya kengashlari tomonidan ma’muriy hujjatlarning qonunchilikka muvofiqligini sudgacha ko‘rib chiqish uchun manfaatdor shaxslarning shikoyatlari hamda davlat xizmatlari ko‘rsatilishini monitoring qilish natijalari asos bo‘ladi.

Manfaatdor shaxs tomonidan shikoyatlar davlat xizmatlari markazi xodimi orqali yohud O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga kirib elektron maxsus havoladan (https://my. gov.uz/uz/service/get/1243#appeals-regarding-services-v1/offer-applicant/create) foydalanilgan holda apellyatsiya kengashlariga yuborilishi mumkin.

Kelib tushgan shikoyatlar kotib tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi hamda ikki ish kuni ichida Vaqtinchalik nizomda nazarda tutilgan talablarga muvofiqligi tekshiriladi.

Shikoyatlar rais boshchiligida apellyatsiya kengashlari majlisida o‘n besh kun ichida ko‘rib chiqiladi. Apellyatsiya kengashining a’zolaridan tashqari, majlisda manfaatdor shaxs yoki uning vakili hamda vakolatli organ mansabdor shaxslari ishtirok etishi mumkin. Shikoyatlarni ko‘rib chiqqanlik uchun manfaatdor shaxslardan to‘lovlar undirilmaydi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Murojaatlarni ko‘rib chiqish teng huquqlilik, xolislik, qonuniylik, kollegiallik va huquqni qo‘llash amaliyotining bir xilligini ta’minlash hamda murojaat etuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish prinsiplariga asoslanadi.

Majlisda manfaatdor shaxsning talablari va e’tirozlarini asoslovchi holatlar, shuningdek, ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa holatlar mavjudligi yoki mavjud emasligi aniqlanadi.

Apellyatsiya kengashlari ish yuzasidan kerakli hujjatlar, axborotlarni va boshqa ma’lumotlarni davlat tashkilotlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan bepul tarzda so‘rash va olish huquqiga ega. Tegishlicha vakolatli organlar esa so‘ralgan ma’lumotlarni besh ish kunidan kechiktirmasdan taqdim etishi lozim. Chunonchi, zarurat bo‘lganda, apellyatsiya kengashlari ish yuzasidan mutaxassis va ekspertlarni taklif qilish huquqiga ega.

Shikoyatlarning ko‘rib chiqilishi natijasida, quyidagi qarorlardan biri qabul qilinishi mumkin:

1) ma’muriy hujjatni o‘zgartirishsiz o‘z kuchida qoldirish;

2) ma’muriy hujjatga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha vakolatli organga majburiyat yuklash yohud ma’muriy hujjatni qisman yoki to‘liq bekor qilish;

3) vakolatli organ tomonidan davlat xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha arizani qayta ko‘rib chiqish haqida.

Shikoyatlarni ko‘rib chiqish paytida ma’muriy huquqbuzarlik alomatlari, masalan, davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi qonunchilikning arz qiluvchidan murojaatni qabul qilishni rad etganlikda, davlat xizmatlari ko‘rsatish chog‘ida murojaatlarni ko‘rib chiqish tartibini va muddatlarini buzganlikda, arz qiluvchidan qonunchilikda nazarda tutilmagan hujjatlarni talab qilib olganlikda, davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasidagi vakolatli davlat organining qonuniy talabini (topshirig‘ini) bajarmaganlikda ifodalangan tarzda buzilishi mavjudligi aniqlangan taqdirda, hujjatlar ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan organlarga yuboriladi[6]. Chunonchi, manfaatdor shaxsga qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lmagan davlat xizmatlarini ko‘rsatish natijasida yetkazilgan zararni qoplash bilan bog‘liq masalalar sud tartibida hal etiladi.

Qaror majlisda ishtirok etayotgan apellyatsiya kengashlari a’zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovoz berishda betaraf qolish mumkin emas. Ovozlar teng bo‘lgan hollarda majlisga raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi. Qarorga qo‘shilmagan apellyatsiya kengashi a’zosi o‘zining alohida fikrini yozma shaklda taqdim etadi. Apellyatsiya kengashlari kotibi ovoz berish huquqiga ega emas.

Apellyatsiya kengashlarining qarorlari uch ish kunidan kechiktirmay “E-qaror” elektron tizimiga joylashtiriladi hamda vakolatli organ va manfaatdor shaxsga yuboriladi. Apellyatsiya kengashlarining qarorlari yuzasidan manfaatdor shaxs tomonidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin. Ma’muriy organlar uchun

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

esa apellyatsiya kengashlarining qarorlari qat’iy hisoblanadi va ularning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas.

Tegishli davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha vakolatli organlarning birinchi rahbarlari apellyatsiya kengashlarining qonuniy talablarini so‘zsiz bajarishi, apellyatsiya kengashlari qarorlarining ijrosini ta’minlashi va bu haqda apellyatsiya kengashlarini xabardor qilinishi uchun shaxsan mas’ul hisoblanadi. Bunda, ma’muriy hujjatni o‘zgartirish haqidagi qaroriga asosan qayta ko‘rib chiqish bosqichiga o‘tgan arizalar uch ish kuni ichida, qisman yoki to‘liq bekor qilish haqidagi qaror yuzasidan qayta ko‘rib chiqish bosqichiga o‘tgan arizalar esa tegishli davlat xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha reglamentlarda belgilangan muddatlarda vakolatli organ tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Shubhasiz, mazkur huquqiy eksperiment jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda qo‘shimcha qulayliklar yaratishda hamda davlat xizmatlari yuzasidan qabul qilingan ma’muriy hujjatlarning qonunchilikka muvofiqligini ta’minlashda ahamiyat kasb etadi. Shu bois, o‘ylaymizki, apellyatsiya kengashlari Qaraqalpog‘iston Respublikasi adliya vazirligi va respublikamizning barcha viloyat adliya boshqarmalari faoliyatiga joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa manbaalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi 80-farmoni /https://lex.uz/docs/6937312;

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonuni / https://lex.uz/docs/3492199;

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risida”gi kodeksi / https://www.lex.uz/acts/3527353;

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi “Huquqiy eksperiment tariqasida davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq ma’muriy hujjatlar bo‘yicha nizolarni sudgacha ko‘rib chiqishning yangi tartibini joriy etish to‘g‘risida”gi 188-qarori /https://www.lex.uz/docs/7532799;

5. Adliya vazirligi huzuridagi Apellyatsiya kengashining dastlabki majlisi bo‘lib o‘tdi: 2025-07-30 09:25:00/Vazirlik yangiliklari/ https://gov.uz/uz/adliya/news/view/73911;

6. Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 2155-moddasi (Davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi qonunchilikni buzish).